

GLOBALLASHUV SHAROITIDA HARBIY OILALARDA AYOL SHAXSINING YANGI MUHITGA MOSLASHUVINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLARI VA PSIXIK SALOMATLIKNI TA’MINLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.

Abduqodirova Umidaxon Raxmonberdi qizi
Andijon Davlat Pedagogika instituti talabasi
E-mail: sam735277@gmail.com
Ibragimova Xurshida Xusanbayevna
Pedagogika va psixologiya kafedrası o’qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19424175>

ANNOTATSIYA. Ushbu maqola globallashuv sharoitida oliy ta’lim muassasalarida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonida psixik salomatlikni ta’minlash masalalarini o’rganadi. Tadqiqotda talabalarda stress omillari, adaptatsiya jarayonlari, pedagogik va psixologik qo’llab-quvvatlash tizimlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni qo’llashning psixik salomatlik va o’quv jarayoniga ta’siri o’rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, pedagogik va psixologik innovatsiyalarni joriy etish, qo’llab-quvvatlovchi muhit yaratish va stressni kamaytiruvchi dasturlar talabalarning psixik barqarorligini mustahkamlashga va o’quv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi [1][2].

Kalit so’zlar: globallashuv, yuqori malakali kadrlar, psixik salomatlik, stress, pedagogik innovatsiyalar, qo’llab-quvvatlovchi muhit, interaktiv texnologiyalar, harbiy oila ayollari, moslashish.

ANNOTATION. This study explores the challenges of maintaining students’ mental health during the training of highly skilled professionals in a globalized environment. The study analyzes stress factors, adaptation processes, and pedagogical and psychological support systems. It also investigates the impact of innovative approaches and modern technologies on mental health and academic performance. Findings suggest that applying innovative teaching and psychological strategies, providing a supportive atmosphere, and implementing stress-reduction initiatives significantly improve students’ psychological stability and learning outcomes .

Keywords: globalization, highly qualified personnel, mental health, stress, pedagogical innovations, supportive environment, interactive technologies.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются вопросы обеспечения психического здоровья студентов в процессе подготовки высококвалифицированных кадров в условиях глобализации. Анализируются факторы стресса, адаптационные процессы, а также педагогические и психологические механизмы поддержки. Дополнительно анализируется влияние инновационных подходов и современных технологий на психическое здоровье и академическую успеваемость. Результаты показывают, что внедрение педагогических и психологических инноваций, создание поддерживающей среды и применение программ по снижению стресса способствуют укреплению психической устойчивости студентов и повышению эффективности учебного процесса.

Ключевые слова: глобализация, высококвалифицированные кадры, психическое здоровье, стресс, педагогические инновации, поддерживающая среда, интерактивные технологии.

1. Kirish. Globallashuv sharoitida oliy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – talabalarni nafaqat bilimli, harbiy oilalarda ayol shaxsining yangi muhitga moslashuvining

ijtimoiy-psixologik omillari va psixik salomatlikni ta’minlashning innovatsion yondashuvlari, balki ruhiy jihatdan barqaror shaxs sifatida shakllantirishdir. Chunki bugungi kunda yuqori malakali kadr bo’lish uchun faqat nazariy bilim yetarli emas, balki stressga chidamlilik va tez moslasha olish qobiliyati ham zarur deb o’ylayman [3]. Talabalik davrida ko’pchilik turli bosimlarga duch keladi. Akademik yuklamaning ko’pligi, vaqtni to’g’ri taqsimlay olmaslik, kuchli raqobat muhiti, yangi jamoaga moslashish va shaxsiy muammolar psixik holatga sezilarli ta’sir qiladi [4]. O’zim ham talaba sifatida shuni his qilamanki, ba’zida ruhiy zo’riqish o’qish samaradorligiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotni olib borishda bir necha metodologik yondashuvlardan foydalandim. Avvalo, nazariy tahlil usuli orqali oliy ta’lim tizimida psixik salomatlik, stress, adaptatsiya jarayonlari hamda globallashuv sharoitida kadrlar tayyorlash masalalariga oid ilmiy adabiyotlar va maqolalarni o’rgandim. Bu menga mavzuning nazariy asoslarini chuqurroq tushunishga yordam berdi.

Bundan tashqari, eksperimental yondashuv ham qo’llanildi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv mashg’ulotlar va mentorlik dasturlarining talabalarning psixik salomatligiga ta’siri sinov tariqasida o’rganildi. Bu jarayonda talabalar faolroq ishtirok etgani va o’zlarini erkinroq his qilgani kuzatildi.

Natijalar. Talabalar orasida eng ko’p uchraydigan psixologik muammolar: akademik yuk, vaqtni boshqarish qiyinchiliklari, ijtimoiy muhitga moslashish, va stress. Innovatsion pedagogik yondashuvlar, jumladan interaktiv mashg’ulotlar, raqamli texnologiyalar va masofaviy o’qitish talabalarning psixik salomatligini yaxshilaydi [6]. Psixologik qo’llab-quvvatlash, mentorlik dasturlari va psixologik konsultatsiyalar talabalarda adaptatsiya jarayonini tezlashtiradi va stressni kamaytiradi [7].

Qo’llab-quvvatlovchi universitet muhiti va innovatsion o’quv metodlari talabalarning motivatsiyasini oshiradi va o’quv jarayonining samaradorligini yaxshilaydi [8]. Talabalar psixik barqarorligini oshirish pedagogik va psixologik strategiyalarni uyg’unlashtirish orqali amalga oshiriladi, bu esa ularning kelajakdagi professional faoliyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Xulosa. Globallashuv jarayonida raqobatning kuchayishi va axborot oqimining ortishi oliy ta’lim tizimida psixik salomatlik masalasini yanada dolzarb etmoqda. Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda nafaqat kasbiy bilim va ko’nikmalar, balki talabalarning ruhiy barqarorligini ta’minlash ham strategik vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion pedagogik va psixologik yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mentorlik tizimi, psixologik qo’llab-quvvatlash dasturlari, interaktiv metodlar hamda raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish talabalarning stressga chidamliligini oshiradi, ularning o’ziga ishonchini mustahkamlaydi va o’quv faoliyatini samaraliroq tashkil etishga yordam beradi. Bunday yondashuvlar natijasida ta’lim muhiti yanada xavfsiz va qo’llab-quvvatlovchi tus oladi. Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalarida psixik salomatlikni ta’minlash va uni innovatsion mexanizmlar orqali mustahkamlash kelajak avlodning intellektual salohiyati hamda ijtimoiy faolligini oshirishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Abdullayev S. Talabalar psixologik xavfsizligi.* – Toshkent: Fan, 2015.
Karimov I.A. Universitetda psixologik qo’llab-quvvatlash. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
G’oziyev E.G’. Oila va yoshlar psixologiyasi. – Toshkent: O’qituvchi, 2003.
Tojiboyeva D. Stress va adaptatsiya psixologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.
Musurmonova O. Oliy ta’limda pedagogik qo’llab-quvvatlash. – Toshkent: Fan, 2010.
Qodirov B. Talabalar ruhiy salomatligi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.

“Xalqaro tajriba: ta’limni modernizatsiyalash sharoitida zamonaviy psixologiya yo‘nalishida yuqori malakali kadrlar tayyorlash istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallar to‘plami. APDI – 2026-yil 24-mart

Yo‘ldoshev J. Psixologik xavfsizlik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
Abdullayeva B. Stressni boshqarish va adaptatsiya. – Toshkent: Tafakkur, 2015.